



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

8. Usenov S. Iyshan qala qamali. // Muğallim hám uzliksiz bilimlendiriw. Ilmiy metodikaliq jurnal. Nókis , 2013
9. <https://lex.uz/acts/-25461>

XIVA HUKMDORLARINING UYI (163 XONALI TOSH SAROY)

Radjapov Bekzod Jumanazarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura” kafedrası
o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston xududida madaniy meroslarni asrash, xususan Xorazm viloyati Xiva shaxrida bir emas, bir nechta xon saroylari hamon mavjud. Ana shulardan biri-mashhur Toshhovli saroyidir. 163 xonali saroyining arxitekturaviy qiyofasi va majmuaviy shakillanishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Анотация

В данной статье сохранение культурного наследия на территории Узбекистана, в частности, в городе Хива Хорезмской области до сих пор существует не один, а несколько ханских дворцов. Один из них-знаменитый Дворец Ташховли. Показана связь с архитектурным обликом и комплексным формированием 163-комнатного дворца.

Abstract

In this article, the preservation of cultural heritage on the territory of Uzbekistan, in particular, in the city of Khiva, Khorezm region, there are still not one, but several Khan palaces. One of them is the famous Tashhovli Palace. The connection with the architectural appearance and complex formation of the 163-room palace is shown.

Kalit so‘zlar

tarix, shaharsozlik, Xiva, saroy, yodgorlik, loyiha va qurilish an‘analari,

Ключевые слова

история, градостроительство, Хива, Дворец, памятник, проектирование и строительные традиции.

Key words

history, urban planning, Khiva, Palace, monument, construction, territory, design and construction traditions.

Kirish

Xiva hukmdorlarining uyi (163 xonali Tosh saroy).

Sharq davlatlarida hukmdorlar yashash, hukmronlik qilish, mehmonlarni kutib olish, davlat kuch-qudratini ko'rsatish maqsadida qadim-qadimdan muhtasham saroylar bunyod etish odatga kirgan. Xiva shahrida bir emas, bir nechta xon saroylari hamon mavjud. Ana shulardan biri-mashhur Toshhovli saroyidir. Toshhovli baland devor burjlari va darvozalari bilan qo'rg'onni eslatadi.

Asosiy qism

Toshhovli saroy binosi me'morchilik xazinasining durdonalaridan biri sanaladi. 163 xonali Toshhovli saroyi 1829-1839 yillarda Muhammad Yoqub mehtar loyihasi asosida, Pishgan g'ishtlardan qurilgan Tosh hovlining nomi binoning o'ziga xos tarxi(plani) va arxitekturasidan kelib chiqqan saroy majmuasi. Saroy ikki qavatli ayvon va xonalardan iborat. Dastlab **haram**, so'ngra **mehmonxona**, keyinchalik **arzxona** hovlilari bitkazilgan. Haramda xonning oilasi yashagan bo'lsa, mehmonxona chetdan kelgan elchi, turkman va qoraqalpoq biy, sardorlari kabi ulug' mehmonlarga xizmat qilgan. Arzxonada fuqoraning arzi-dodi tinglansa, xorijdan kelgan elchilar rasman shu yerda qabul qilingan.

Bu saroyda xorazmlik me'mor, naqqosh, koshinpaz, yog'och va marmar o'ymakori ustalarining eng chiroyli ishlari o'z aksini topgan.

Saroy bitkazilishi munosabati bilan zamon shoir va fozillari maqto'v she'rlari va tarixlar yozganlar. Ularning ko'pchiligi mehmonxona va arzxona ayvonlari devoriga chiroyli koshinlarga yozib o'rnatilgan. Ushbu she'rlardan qasrning qay darajada chiroyli bo'lganini tasavvur qilish mumkin:

Shoh jannat kabi qasr bunyod qildi-ki,

Doimo uni ko'rish uchun quyosh bosh ko'taradi.


Ta'rifi kengligini tamomlash qiyin,

Agar fikr yo'rg'asi yuz yil yugurib yursa ham.

Go‘zalligiga hatto quyosh ham rashq qilib g‘am chekadi,
 Boshdan-oyoq chiroyiga oy ham mahliyo bo‘ladi.
 Falakday shavkatli shoxning saroyidagi,
 Bu bezaklarni Abdulla naqsh qildi.

Tosh hovli “**haram**” tarx loyixasi.

Shimol tomon



Janub tomon

1-Rasm. Abdulla Boltaev. Tarix Xiva esdaliklari. Qo‘lyozma daftaridan

Tarixiy joylardan bo‘lg‘an Tosh hovli binosi “**mehmonxona**” bo‘limining loyihasi. 1832 yilda Olloqulixon tomonidan bino etulgandur, deb yozadi Abdulla Boltaev . Tarix Xiva esdaliklari. Qo‘lyozma daftarida

Shimol tomon



Tosh hovli **“haram”** bo‘limi **ekster’er**.

(foto sur‘at muallifi: Bekzod Radjapov)

Janub tomon



Tosh hovli **“haram”** bo‘limi **ekster’er**.

(fotosurat muallifi: Bekzod Radjapov)



Tosh hovli **“haram”** bo’limi. **Ulug’ ayvon** (Bir ustunli Ulli ayvon)

Ekster’er. (foto sur’at muallifi: Bekzod Radjapov)

Ushbu uch turli loyiha (plan) bo’yicha ko’rsatilganlar shu Tosh hovli binosida joylashgandur. Bu joyni uch bo’lak loyiha(plani) hammasi bir plan bo’lib ishlangan. Umumiy maydoni (80x80) kvadrat metr bo’lib 163 xonadan iborat plandur.

Bu Dosh hovli binosida haramxona birlan mehmonxonasini bitkazilgan yilini abjad hisobi birlan koshin qilib so’ngra band qilib qo’yilg’andur.

Bu Dosh hovli binosidag’i haramxona bo’lib, bunda orqaga qaragan katta ayvondan beshta ayvon bordur:

1 - ayvon kunchiqar tomonda bo’lib, qolgan to’rt ayvondan ulug’ va balandroq qilib ishlangani xonni o’ziga xosdur.

Ichkari haramxonadan xonni o’ziga katta maxsus bo’lgan dahlizdan xon mehmonxonaga kiradi va yana ichkaridan xon arzxona ayvong’a chiqib kiradurg’an alohida dahlizdan yo’l bordur. Shul dahlizlarni har birida xonni o’ziga ishonchli odamlaridan bola-chog’asi bilan bo’ladurgan (eshik og’a) ya’ni, tunqotar maxsus qarovullar uchun uy-ayvonlari ham bordur.

Bu Dosh hovli binosini ichkarisi har turli koshinkorlik va yog‘ochdan o‘ymakor naqshli qopular, katta darvozalar, tarixlari yozilgan marmar o‘ratoshlar qo‘yulib bezalgan. Tarixiy joylardan Xiva shahrindagi eng mashhur bo‘lgan Dosh hovli binosidur. Bu joyni ba’zi yerlari ikki qavatli bo‘lib, ularni ham fatolo‘qlariga har xil bo‘yog‘lar bilan ranglangan va naqsh qilingandur. Devollarini ba’zi yerlariga hajjadan o‘yma naqshlar bilan ziynatlangandur”.

Toshhovli saroyining har bir xonasida kimlar yashagani va ishlagani M.Yo‘ldoshevning “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” asarida to‘liq ko‘rsatilgan.

Shunisi qiziq-ki, bu ustalar shu davrda binokorlik maktablari bo‘lmagan va ustalardan o‘qub ko‘rmaganlardur. Faqat biror solinib yurgan imoratlardagina ustani yonida xizmat qilib, ustani ishlab turgan ishiga qiziqib, tajribada shu ustalardan o‘rganib, yodgorlik bo‘lib qolgan binokorlik hunarmand ishlari Xiva shahrimizda hozirgacha saqlanib kelmoqda”.

Xulosa

Abdulla Boltaev qadimda muhandislik, me’morchilik kasbini o‘rgatuvchi oliy o‘quv dargohlari bo‘lmaganiga, ustalar esa chiroyli imoratlar bunyod qilganlariga ishora qilmoqda. Darhaqiqat, o‘zbeklarning bunyodkorlik, quruvchilik kasbi ularning bobolaridan o‘tgan qonida bor. Alisher Navoiy shunday yozgan:

Muhandiskim, bu qasr obod qildi,

Bu yanglig‘ tarhini bunyod qildi.

Yoki Ogahiy XIX asr birinchi yarmida bunyod qilingan me’morchilik san’atining durdonalaridan bo‘lgan **“Toshhovli”** majmuasining tarhini Muhammad Yoqub mehtar chizib bergan va qurulishga boshchilik qilganini yozadi. Umuman me’morchilik bilan shug‘ullangan usta-muhandislarning qadim-qadimdan bo‘lganligini O‘zbekistonning barcha viloyatlaridagi obidalar tasdiqlaydi va ularning ishlari hozirgi zamonaviy ustalarning ishlaridan kam emasligiga shohidlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Boltaev A. Tarix Xiva esdaliklari. Qo‘lyozma daftari
2. Yo‘ldoshev M.Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent-1959.
3. Raxmanov A. K istorii topografii Xiva XVI-XX vekov.O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. №7-8
4. Boltaev A. Xiva arxitektura qoidalari. Toshkent- 2013y.
5. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. Toshkent – 2005.

MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI YEROSTI SIZOT SUVLARNING AGRESSIV TA’SIRIDAN SAQLASH CHORALARI

Bobojonov Anvarbek Raximberganovich

UrDU “Qurilish” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xiva shahrihududidagi “angi turmish” mahallasida joylashgan Muhammad mahram madrasasi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring kuzatuv ishlari va uni saqlab qolish masalalaari yoritilgan.

Аннотация

В статье приведены некоторые результаты мониторинговые натурные исследование и определение технического состояния а также ремонтно-реставрационные работы с применением методов по сохранению от вредного воздействия агрессивных грунтовых вод медресе Мухаммад махрама, которые находится на территории махалле “Янги турмуш”, города Хивы.

Abstract

The article presents some results of a monitoring field study and determination of the technical condition of a traditional residential building located in the territory of mahalla “Yangi turmish”, the city of Khiva.

Kalit so‘zlar

madrasasi, yodgorlik, texnik holat, namlik, sho‘rlanish, devor, sinch nigirik, saqlash, ta’mirlash, loyiha.